

## SALTANATNI BOSHQARISH TIZIMI. “TEMUR TUZUKLARI “ VA ULARNING AHAMIYATI.AMIR TEMURNING TARIXIY XIZMATLARI

**Bekmuratova Miyrigul**

*O'zbekiston sa'nat va madaniyat instituti Nukus filiali*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** Amir temur, “ temur tuzuklari “, sharqshunoslik institute, Tarix , insoniyat.

### Annotatsiya

Amir Temur shaxsini idrok etish — tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash — o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash — tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir», deb ta'kidlanadi. Maqola orqali yanada ko'proq malumotga ega bo'lasiz.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 675 yilligi arafasida Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan nashrga tayyorlangan «Temur tuzuklari» asari Prezidentimiz Islom Karimov so'zboshisi bilan ochiladi. Tarix insoniyat bosib o'tgan yo'lining ko'zgusi. Unga boqib, o'tmish bilan bugun taqqoslanadi. Milliy davlatchiligimiz tarixining asriy an'alaridan xulosalar chiqariladi. Shu ma'noda, XIV-XV asrlarga oid bu qimmatli manbaning qayta nashr etilishi Vatanimiz tarixiga tom ma'noda ulkan voqelik sifatida muhurlandi. Amir Temur milliy g'urur, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar bilan qurollangan buyuk davlat arbobi edi. Mojar olimi Xerman Vamberi ta'kidlaganidek, O'rta Osiyoda asl turklik davri Temurdan boshlangan. U turklarning mug'ul-xitoy dunyosining ustidan g'alabasini mujassam etib, milliy davlatga asos solgan, mamlakatning rasmiy tili turk (o'zbek) tili bo'lgan.

Buyuk Amir Temurning siyosiy faoliyati nafaqat davlatchilik tarixini boyitishda, shu bilan birga hozirgi sharoitda milliy davlatchiligimizni mustahkamlashda ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk Amir Temur tomonidan yozilgan muhim asar bu «Temur tuzuklari», ya'ni «Tuzukoti Temuriy»dir. «Qomus ul a'lom» deb nomlangan va Istambulda nashr etilgan komus kitobida: «Amir Temur «Tuzukoti» deb yuritiladigan komuslar majmuasini yozdi. Unda o'zining hayot yo'lini bayon qildi»1, - deb yoziladi.

Amir Temur faoliyatini o'rganishda asosiy manbalardan bo'lgan, turkiycha bitilgan «Temur tuzuklari»ning bir ko'lyozma nusxasi Yaman hokimi Ja'far podshoh tomonidan milliy kutubxonada saqlangan. Bu asarning fors tiliga tarjimasini Mir Abu Tolib Hasanij at-Turbotiy Makkaga haj qilib qaytib kelganidan so'ng amalga oshirgan. Ana shu nusxa asosida «Temur tuzuklari» bizgacha yetib kelgan va XIX asrning oxirlarida rus tiliga tarjima etilib, nashr qilingan. Asar butun dunyoga mashhur bo'lib, asrlar osha o'z ahamiyatini saqlab qolib, juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Arab tili professori, ingliz mayori Uayt asarning forsiy matnini nashrga tayyorlagan va u 1783 yili Oqsfordda chop etilgan. 1785 va 1890 yillarda ushbu nashrning forsha matni hech o'zgarishsiz Hindistonning Kalkutta va

Bombey shaharlarida, 1963 yilda Eronda nashr etilgan. U 1787 yili taniqli fransuz sharqshunosi L.Lyangle tomonidan ushbu asar fransuz tilida ham nashr etilgan.

«Temur tuzuklari» ikki bo'lim va 56 banddan iborat bo'lib, kitobda bu bo'limlar maqola deb atalgan. Birinchi maqola Temurning davlatni barpo etish va mustaxkamlash, qo'shinlarni tashkil etish yuzasidan tuzuklaridan iborat. Ikkinchi maqolada esa, Amir Temur tomonidan o'tkazilgan 13 kengash tafsilotlari va ularda buyuk sohibqironning amalga oshirgan tadbirlari bayon etilgan.

Shuningdek, «Tuzuklar»ning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405 yil 18 fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga olishi, Oltin O'rda xoni To'xtamish ustidan qozonilgan g'alaba va nihoyat buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Kitobning II qismi Sohibqiron nomidan aytilgan va uning toju-taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pandu-nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalari burchi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokozolar xususida so'z yuritiladi.

Ikkinchi bo'limda, ya'ni maqolada Amir Temur shunday deb yozadi: «Mamlakatlarni fatx etuvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etuvchi qudratli nabiralaringma ma'lum bo'lsinkim, tangri taolo dargohidan umidim shulki, ko'plab farzandlarim, avlodim uchun saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir necha tuzukka bog'ladim, va saltanatni boshqarish haqida qo'llanma yozib qoldirdim»<sup>1</sup>.

Ulug' Amir Temur yana davom etib: «Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va ahloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim»<sup>2</sup>, - deb yozgan edi.

Oliyjanob ahloqiy fazilatlarini Amir Temur xazratlari ulug'lab-gina qolmaganlar, balki bu fazilatlarini bajarilishini davlat xududida yashayotgan fuqarolardan, hatto o'z oila a'zolari tomonidan ham so'zsiz bajarilishini talab qilganlar.

Amir Temur hukmdor uchun qo'yidagi o'n ikki xislat zarurligini va bu xislatlarning birortasiga amal qilinmasa saltanat ishlariga putur yetishi mumkinligini tarixiy misollar bilan isbot qilib bergan edi. A.Temur hukmdor birinchidan o'z so'ziga ega bo'lishi, ikkinchidan adolatpesha bo'lishi, uchinchidan har ishda faqat o'zi hukm chiqarishi, to'rtinchidan qarorida qat'iy bo'lishi, beshinchidan hukmi joriy etilishi, oltinchidan podsholik ishlarini har kimga topshirib qo'ymasligi, yettinchidan ko'pchilikning fikrini eshitishi, sak qizinchidan shoshmasdan mulohaza bilan ish yuritishi, to'qqizinchidan sipohu, raiyatni umid va qo'rquv orasida saqlashi, o'ninchidan barcha ishni o'z erkicha qilishi, o'n birinchidan o'z ishlariga bironi sherik qilmasligi va o'n ikkinchidan davlat ishlarini maxfiy saqlab, boshqalardan ogoh va hushyor bo'lishligi lozimligini alohida o'qitgan edi. Buyuk davlat arbobi milliy va xalqaro iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. U shunday soliq tizimi va dehqonlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradiki, pirovardida Movarounnahr ahli o'zlarining g'alla hamda guruchga bo'lgan ehtiyojlarini qoplab, ortganini qo'shni mamlakatlarga sotish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'sha davr tarixchisi Hofiz Abro' o'z asarlarida Sohibqironning turk, arab va forslar tarixini chuqur bilganligi, har bir voqea va hodisaga nisbatan oqilona xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'lganligini yozib qoldirgan. Uning har bir masalani soha bilimdonlari bilan maslahatlashib hal qilgani ham alohida qayd etilgan.

Asarning yangi nashri so'zboshisida «Ulug' ajdodimiz, garchi buyuk bunyodkor va jahongir bo'lsa-da, kuch-qudrat zo'rlik va zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda, hamjihatlik va hamkorlikda ekanini nihoyatda chuqur anglagan. Uning davlatni oqilona boshqarish, o'ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to'g'ri yo'l, tadbir topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi»,

deb Sohibqironning mazkur xislatlariga yuksak baho berilgan. Shunday qilib, 27 mamlakatdan tarkib topgan buyuk saltanat asoschisi Sohibqiron Amir Temur ibn Tarag'ay yirik davlat arbobi, mohir diplomat, ulug' sarkarda, ilmu madaniyat homiysi, haq va adolatning jasoratli yalovbardori sifatida milliy davlatchilikda, huquq va siyosat sohasida o'zidan unutilmas va barhayot ta'limotlar, to'ratuzuklar qoldirgan.

Amir Temurning huquqiy qarashlari va qonunchilik tizimi butun Temuriylar saltanatida hayotning barcha jabhalarida o'z aksini topib, ulkan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Jumladan, Buyuk Ipak yo'li xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilganki, bu bilan savdo-tijorat rivojiga katta hissa qo'shgan Sharq G'arb mamlakatlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasining uchinchi bandida ushbu Asosiy Qonun "o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib" qabul qilindi, deb ta'kidlangan. Albatta, o'zbek davlatchiligi rivoji tarixiy tajribasining eng muhim qismi – Amir Temur va temuriylardan meros huquqiy, siyosiy va tarixiy manbalardan, ayniqsa, "Temur tuzuklari", "Boburnoma", "Jahongir tuzugi", "Humoyunnoma", "Zafarnoma" kabi ko'plab nodir asarlardan iboratdir. Sohibqiron qoldirgan qonuniy me'yorlar va huquqiy normalardan Konstitutsiyamizning turli qism va boblarida, jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi", "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti", "Vazirlar Mahkamasi", "Sud hokimiyati", "Mudofaa va xavfsizlik" boblarining muayyan moddalarida, zamon talablarini nazarda tutgan holda, ijodiy foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, Qonunga asoslangan tizimning ahamiyatini chuqur anglagan Amir Temur haqli ravishda "Kuch – adolatda" degan oliy me'yorni o'ziga shior qilib olgan va hatto ushbu hikmatni uzuk-muhriga o'yib yozdirgan. Bu haqda Ibn Arabshoh shunday guvohlik beradi: "Temur tamg'asining naqshi "Rosti rasti" bo'lib, bu "haqgo'y bo'lsang, najot topasan" demakdir". Sohibqironning bu purhikmat so'zlari bugun ham qudratli demokratik huquqiy davlat qurish uchun asosiy yo'llanma hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Temur tuzuklari [forschadan Alixonto'ra Sog'unuy va Habibulla Karomatov tarjimasini], T., 1991, 1996;
2. Karomatov H., "Temur tuzuklari"ni O'zbekistonda o'rganish muammolari (Temuriylar davri madaniy yodgorliklari), T., 2003
3. A. A. Odilov. "Amir Temur tuzuklari"- davlat boshqaruvi asosi
4. B. A. Axmedov. "Amir Temur "2001-y.
5. Ziyo.uz